



Ro'zixol PANJIYEVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: panjiyevazixol@gmail.com

PhD O.Xamzayev taqrizi asosida

O'ZBEK-INGLIZ BADIY MATNLARI ASOSIDA MADANIYATGA XOS TARIXIY REALIYALARNI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz badiiy matnlari misolida madaniyatga xos tarixiy realiyalarni tarjima qilish masalalari tahlil qilinadi. Bilamizki, realiyalar xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, diniy qarashlari va ijtimoiy-siyosiy tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, boshqa madaniyat vakillari uchun begona bo'lishi mumkin. Tarjima jarayonida ularni to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish orqali berish har doim ham imkoni bo'lmaganligi sababli, transliteratsiya, izohli tarjima, adaptatsiya va ekvivalent izlash kabi turli strategiyalar qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: Tarjima nazariyasi, badiiy matn, realiyalar, madaniyat, tarixiy kontekst, adaptatsiya, ekvivalent, izohli tarjima.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ИСТОРИЧЕСКИХ РЕАЛИЙ, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ КУЛЬТУРЫ, НА ОСНОВЕ УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы перевода культурно-специфических исторических реалий на примере узбекских и английских художественных текстов. Как известно, реалии тесно связаны с образом жизни, обычаями, религиозными взглядами и общественно-политическим строем народа и могут быть чужды представителям других культур. Поскольку не всегда удаётся передать их, найдя прямой эквивалент в процессе перевода, используются различные стратегии, такие как транслитерация, толковый перевод, адаптация и поиск эквивалентов.

Ключевые слова: Теория перевода, художественный текст, реалии, культура, исторический контекст, адаптация, эквивалент, толковый перевод.

PROBLEMS IN TRANSLATING HISTORICAL REALITIES SPECIFIC TO CULTURE BASED ON UZBEK-ENGLISH LITERARY TEXTS

Annotation

This article analyzes the issues of translating culturally specific historical realities using the example of Uzbek and English literary texts. As we know, realities are closely related to the lifestyle, customs, religious views and socio-political system of the people and may be alien to representatives of other cultures. Since it is not always possible to convey them by finding a direct equivalent in the translation process, various strategies are used, such as transliteration, explanatory translation, adaptation and search for equivalents.

Key words: Translation theory, literary text, realities, culture, historical context, adaptation, equivalent, explanatory translation.

Kirish. Har bir xalq o'zining turmush tarzi, urf-odatlarini, diniy marosimlari va ijtimoiy hayotini alohida tushunchalar orqali ifodalab keladi. Bunday tushunchalar tilshunoslikda realiyalar deb yuritiladi. Ularni boshqa tilda aniq va to'liq ifodalash ko'p hollarda qiyinchilik tug'diradi. Shu bois, realiyalar tarjimasi masalasi tarjima nazariyasining eng murakkab va shu bilan birga dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Realiya - tushunchasi tarjimashunoslikda va madaniyatshunoslikda keng qo'llaniladi. Bu atama ma'lum bir xalqning hayot tarzi, turmush an'analari, ijtimoiy tuzumi, milliy kiyimlari, urf-odatlarini, diniy marosimlari va tarixiy jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan so'z va iboralarga nisbatan ishlatiladi. Realiyalar ko'pincha boshqa tillarda tayyor ekvivalentga ega emas, chunki ular milliy madaniyatning o'ziga xosligi bilan chambarchas bog'langan.

Demak, realiyalar - milliy madaniyatni ifodalovchi tushunchalar bo'lsa, tarixiy realiyalar - xalqning tarixiy tajribasi, siyosiy va ijtimoiy hayotiga oid o'ziga xos birliklardir. Tarjimon uchun ularni to'g'ri talqin qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy bilimlarni ham talab etadi.

O'zbek va ingliz adabiyotlari misolida olib qaraganda, ikki xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlarini, diniy an'analari va kundalik turmush tarzidagi keskin farqlar realiyalarni tarjima qilish jarayonida muhim to'siqlarni yuzaga keltiradi.

Masalan, o'zbek tilidagi "choyxona", "do'ppi", "Navro'z", "sumalak" kabi tushunchalarni ingliz tiliga oddiy "tea house", "skullcap", "New Year", "sweet dish" shaklida tarjima qilish mumkin, biroq bu holda ular ortidagi milliy ruh va madaniy rang-baranglik o'z ifodasini topmaydi. Xuddi shuningdek, ingliz adabiyotida keng tarqalgan "pub", "knight", "Thanksgiving" kabi tushunchalarni o'zbek tiliga "pivoxona", "riddor", "minnatdorchilik kuni" deb tarjima qilish ham madaniy konnotatsiyani to'liq aks ettirmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlari - R.Rasulova, Sh.Yuldasheva, O.Qurbonova, G.Ahmedova, D.B.Maxametova, K.Qosimova, X.P.Nazarova, Sh.Nurillayeva, R.G'.Safarova, M.Xudoyberganova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ayniqsa, o'zbek-ingliz badiiy matnlar asosida madaniyatga xos tarixiy realiyalarni tarjima qilish muammolari, ularning semantik va pragmatik

o'zgarishlari, shuningdek, transliteratsiya, deskriptiv va izohli usullar kabi umumiy strategiyalar sifatida bayon qilingan. Xususan, Sh.Eshmamatova, S.Shodmonova, G.S.Mirzayeva kabi olimlarning tadqiqotlarida Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy asarlaridagi "mahalla", "oqsoqol" va "chopon" kabi realiyalarni ingliz tiliga o'tkazishdagi madaniy yo'qotishlar tahlil qilinib, hybrid yondashuvlar taklif etilgan, bu jarayonning lingvokulturologik jihatlarini yoritib, o'zbek adabiyotining global targ'iboti uchun yo'l-yo'riqlar beradi.

Tahlil va natija. Tarjima nazariyasida realiyalarni o'rganish masalasi turli tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda tahlil etilgan. Bu tadqiqotlarning umumiy jihati - realiyalarning tarjimasi faqat tilshunoslik emas, balki madaniyatshunoslik, tarix va etnografiya bilan ham uzviy bog'liq ekanligidir.

Tarjima jarayoni qadimdan xalqlar o'rtasida madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib kelgan. Ayniqsa, badiiy tarjima san'ati tilning nafaqat grammatik va leksik qatlamlarini, balki xalqning ma'naviy-madaniy boyligini ham ifodalashda katta rol o'ynaydi [1].

Realiyalarni - ya'ni muayyan madaniyatga xos so'z va tushunchalarni tarjima qilish, tarjima nazariyasidagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Chunki realiyalar xalq madaniyatining chuqur qatlamlariga borib taqaladi va ko'pincha boshqa tillarda ularning to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti yo'q. Masalan, "mahalla", "sumalak" yoki "Navro'z" kabi tushunchalarni boshqa tilga sodda so'z bilan berib bo'lmaydi. Shu bois tarjimon nafaqat leksik ma'noni, balki madaniy qiymatni ham saqlab qolish uchun turli strategiyalardan foydalanishi kerak bo'ladi [6].

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorij tadqiqotlarida realiyalar tarjimasi madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan, MDH olimlari ishlarida - nazariy tipologiya va leksik-semantik jihatdan, O'zbekiston tadqiqotlarida esa - milliy kolorit va badiiy tarjimada realiyalarning saqlanishi nuqtai nazaridan o'rganilmoqda.

Realiyalarning xilma-xilligini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.

1-jadval:

TURI	O'ZBEK ADABIYOTIDA MISOL	INGLIZ ADABIYOTIDA MISOL
Maishiy realiyalar	Choyxona, sumalak, do'ppi	Pub, tea time, pudding
Ijtimoiy realiyalar	Mahalla, oqsoqol, bek	Knight, duke, manor
Diniy realiyalar	Ramazon, Qurbon hayiti, masjid	Christmas, Thanksgiving, cathedral
Tarixiy-siyosiy realiyalar	Xon, mingboshilik, amirlik	Parliament, monarchy, sheriff

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, har ikki tilda milliylik va tarixlilikka oid tushunchalar mavjud bo'lib, ularni tarjima qilish jarayoni ko'pincha qo'shimcha izoh talab qiladi.

Ingliz adabiyotidan misol tariqasida Uilyam Shekspir asarlarini ko'rib chiqish mumkin. Masalan, "knight" tushunchasini o'zbek tiliga oddiy "riddor" deb tarjima qilish mumkin, biroq ingliz tarixidagi ritsarlik an'analari va ularning ijtimoiy ahamiyati o'zbek o'quvchisi uchun notanish bo'lishi mumkin. Shu sababli, izohli tarjima qo'llash zarur bo'ladi.

2-jadval:

STRATEGIYA	TA'RIF	MISOL
Transliteratsiya	Realia aslidagi shaklda beriladi	Do'ppi - "doppi"
Izohli tarjima	So'z bilan birga izoh beriladi	Navro'z - "Navruz (traditional spring festival)"
Analogiya (yaqinlashtirish)	O'xshash tushuncha orqali ifodalash	Mahalla - "community neighborhood"
Adaptatsiya	O'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun moslashtirish	Bek - "chieftain"

Bugungi globallashtirish davrida madaniyatlararo aloqalar yanada jadallashtirib bormoqda. Shu jarayonda tarjimonlarning zimmasiga yanada mas'uliyatli vazifa yuklanmoqda. Xalqaro adabiy jarayonlarda o'zbek adabiyotini keng targ'ib qilish

Bu yo'nalishlarni uyg'unlashtirish tarjima amaliyotida yuqori samara beradi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni bir necha toifaga ajratish mumkin.

Birinchidan, ekvivalentning yo'qligi muammosi. Ko'plab realiyalar boshqa tillarda tayyor ekvivalentsiz bo'ladi.

Ikkinchidan, semantik yo'qotishlar muammosi. Realizatsiya ma'no qatlamlari boshqa tilga o'tganda qisqarib ketadi yoki noto'g'ri talqin qilinadi.

Uchinchidan, madaniy tafovutlar masalasi. Har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlar va urf-odatlar bo'lgani uchun, tarjimon boshqa madaniyat vakiliga tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun izohli tarjimaga murojaat qiladi.

To'rtinchidan, tarixiy kontekstning yo'qolishi muammosi. Masalan, o'zbek adabiyotidagi "bek", "xon", "mingboshilik" kabi unvonlarni ingliz tiliga oddiy "king" yoki "chief" deb berish mumkin, ammo bu terminlar turkiy siyosiy va ijtimoiy tuzumning murakkab tizimini ifodalaydi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun tarjima nazariyasida turli strategiyalar ishlab chiqilgan. Ulardan eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri transliteratsiya bo'lib, realia aslidagi shaklda o'tkaziladi, keyin esa izoh beriladi. Masalan, "Navro'z (traditional spring festival)" kabi. Ikkinchi usul - analogiya topish. Masalan, "mahalla"ni "community neighborhood" orqali yaqinlashtirish mumkin. Uchinchisi - kontekstual izoh berish. Bu usulda tarjimon asarda realiyaga oid qisqacha sharh kiritadi. To'rtinchisi esa adaptatsiya bo'lib, unda tarjimon realiyani boshqa madaniyatdagi tushunchaga moslashtiradi, ammo bu usul ehtiyojkorlikni talab qiladi, chunki u madaniy mazmunni soddalashtirib yuborishi mumkin.

Ushbu ishimizda tarjimada ekvivalent yetishmovchiligi muammosi ta'kidlanib, u leksik bo'shliqlar, frazeologik birliklar, uslubiy va grammatik xususiyatlar tarjimasida qiyinchilik tug'dirishini ko'rsatadi. Ayniqsa, O'zbek adabiyotining yirik vakili bo'lgan O'tkir Hoshimov asarlari misolida bu muammolar ko'proq kuzatilishi qayd etilgan. Bu esa madaniyatga xos tarixiy realiyalarni ingliz tiliga to'liq ekvivalentda berish qiyinligini va izohli tarjima yoki moslashtirish zarurligini ko'rsatadi [7].

Shuningdek, madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishda tarjimonning mahorati alohida ahamiyatga ega. Tarjimon faqat til bilimiga emas, balki tarix, madaniyat, antropologiya, etnografiya kabi fanlardan ham xabardor bo'lishi kerak. Chunki badiiy matnlar orqali xalqlarning madaniy merosi, milliy xususiyatlari va tarixiy xotirasi aks ettiriladi. Tarjimon bu boylikni boshqa tildagi o'quvchiga yetkazishda vositachi vazifasini bajaradi.

Tarjima amaliyotida quyidagi asosiy strategiyalar qo'llaniladi.

Uchun realiyalarni o'ziga xosligini saqlagan holda sifatli tarjimalar yaratish muhim. Shu bilan birga, ingliz adabiyotidan o'zbekchaga qilinadigan tarjimalarda ham milliy xususiyatlar o'zbek o'quvchisiga tushunarli bo'lishini ta'minlash lozim. Bu

esa tarjimonning ikki madaniyatni chuqur bilishi va realiyalarni to'g'ri talqin qila olishiga bog'liqdir.

O'zbek adabiyotining ingliz tiliga tarjima qilinishi jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy kontekstni o'z ichiga olgan murakkab vazifadir. Madaniy realiyalar, xususan tarixiy o'ziga xosliklarga ega bo'lgan tushunchalar, tarjima jarayonida asosiy muammo manbai bo'lib chiqadi. Bu realiyalar o'zbek xalqining ming yillik tarixi, urf-odatlar, an'analar va ijtimoiy tuzumlariga bog'liq bo'lib, ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan leksik birliklardir.

Tarjima nazariyasida bunday realiyalar "lingvokulturologik birliklar" deb atalib, ularni yetkazishda tarjimon madaniy vositachilik rolini o'ynashi kerak. Ushbu tadqiqotda o'zbek-ingliz tarjimasining muammolari, ularning sabablari va yechim yo'llari ko'rib chiqiladi, bu jarayonning lingvistik va madaniy jihatlarini yoritib beradi.

Asosiy muammolardan yana biri o'quvchi auditoriyasining madaniy farqidadir. Ingliz tilidagi o'quvchilar o'zbek tarixi va madaniyatidan bexabar bo'lishi mumkin, shuning uchun realiyalarni tushunarli qilish kerak. Bu matnni soddalashtirish yoki qo'shimcha izohlar qo'shish orqali amalga oshiriladi, lekin bu asl matnning badiiy qiymatini pasaytirishi mumkin.

Demak, o'zbek badiiy matnlarini ingliz tiliga tarjima qilishda madaniyatga xos tarixiy realiyalarni yetkazish

lingvistik, madaniy va estetik muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar source va target madaniyatlar orasidagi farqlar, realiyalarning semantik chuqurligi va o'quvchi auditoriyasining tayyorgarligi bilan bog'liq. Yechim sifatida hybrid strategiyalarni – transliteratsiya, deskripsiya va izohli usullarni – qo'llash tavsiya etiladi. Tarjimonning madaniy kompetensiyasi va ijodiy yondashuvi bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kelgusida o'zbek adabiyotini ingliz tiliga tarjima qilishda maxsus glossariylar va tarjimonlar uchun o'quv dasturlari ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat o'zbek madaniyatini jahon miqyosida targ'ib qiladi, balki tarjima nazariyasini boyitadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, madaniyatga xos tarixiy realiyalarni tarjima qilish jarayoni tarjimon uchun eng katta sinovlardan biridir. Chunki bunda nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosi, balki uning ortidagi tarixiy, madaniy va ijtimoiy mazmun ham boshqa tilga ko'chirilishi lozim. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tarjimon turli strategiyalardan unumli foydalanishi, izohli tarjimalar kiritishi, madaniy tafovutlarni hisobga olishi zarur. Shundagina o'zbek va ingliz adabiyotlari o'rtasida madaniy muloqot samarali kechadi va xalqlarning tarixiy-madaniy merosi kengroq auditoriyaga yetkaziladi.

ADABIYOTLAR

1. Latifov R. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Fan, 2019.
2. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekty). - Moskva: Visshaya shkola, 1990.
3. Bassnett S. Translation Studies. - London: Routledge, 2002.
4. Newmark P. Approaches to Translation. - Oxford: Pergamon Press, 1981.
5. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. - London: Routledge, 2015.
6. Myxtorova M. B. Comparative analysis of realia in Uzbek and foreign language translation // Journal of International Scientific Research. - 2025. - Vol. 2, Issue 9. - P. 672-679.
7. Nasirov N.A. The History of Literary Translation from Uzbek into English // Academic Research in Educational Sciences. - 2021. - Vol. 2, Issue 6. - P. 1011-1022.